

KONFUTSIY

HIKMATLAR





KONFUTSIY

HIKMATLAR

*Ruschadan
Komiljon va Oybek Jo‘rayevlar
tarjimasi*

Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent –2018



UO'K 821.581-84

KBK 94.8

K 68

Konfutsiy.

To'plam. (Matn). Konfutsiy. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 192 6.

Konfutsiy hikmatlari, pand-nasihatlari nafaqat Xitoyda, balki butun dunyoda e'zozlanib keladi. Ular o'zining oddiyligi, hayotiyligi, samimiyligi bilan e'tiborni tortadi. Hikmatlar falsafiy ruhda bo'lib, insonni o'ylashga, fikrlashga va o'ylarining ortidan yetishga chog'laydi. Zero, Konfutsiy so'zining o'zi "falsafa o'qituvchisi" degan ma'noni anglatadi.

UO'K 821.581-84

KBK 94.8

ISBN 978-9943-5318-3-3

© Yoshlar nashriyot uyi.
2018

KONFUTSIY SABOQLARI

Respublikamiz oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan «Siyosatshunoslik» o'quv qo'llanmasida uning muallifi F. Sh. Sharipov buyuk xitoy faylasufi Konfutsiyning «bizga hozirgacha bir oz ma'lum bo'lgan va mavhum ko'rinishda»gi dastlabki siyosiy g'oyalari ijodkori sifatida tanishtiradi.

Biz shu «bir oz ma'lum bo'lgan» faylasuf hayotining yoritilmagan qirralari va «mavhum ko'rinishdagi siyosiy g'oyalari»ni imkon darajasida aniqlashtirishga harakat qilamiz. Toki u nafaqat xitoyliklar, balki butun olam ilm-ma'rifat ahli tomonidan avliyo, donishmand, «tojsiz hukmdor» va millatning ma'naviy-axloqiy dohiysi deb tan olingan olimning butun faoliyati umum-bashariy ahamiyatga ega bo'lib, hamma vaqt va hamma yerda ma'naviy barkamollik g'oyasini shakllantirish, rivojlantirish va hayotga tatbiq etishga xizmat qilsin.

Konfutsiy – insoniylik g'oyasini keng ma'noda kamtarlik, adolatpeshalik, og'ir-bosiqlik, obro'-e'tiborlilik, ochiq ko'ngillilik, sadoqat va samimiylik, odob-axloq chegarasidan chiqmaslik, urf-odatlar va marosimlarga rioya qilish kabi tushunchalarning falsafiy va mantiqiy talqini bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham, uning asarlari har qanday zamonda ham dolzarb.

Biz bu yerda Konfutsiyning «Shutszin» («Tarix kitobi»), «Shitszin» («Qo'shiqlar kitobi», unda 305 ta she'r berilgan), «Itszin» («O'zgarishlar kitobi»), «Chunsyu» («Bahor va kuz solnomasi» – Lu viloyatining 722 –

481-yillardagi tarixi) va «Lunyuy» («Suhbat va mu-nozaralar») dan iborat besh kitobga tartib berganligiga e'tibor qaratamiz. Bu beshlik ichidagi «Lunyuy» bizni qiziqtirayotgan mavzuning asosini tashkil etganligini bilib olib, u kitob haqida batafsil to'xtalamiz, chunki bu asar buyuk faylasuf hayoti va faoliyati haqida o'ziga xos bibliografik ma'lumot ham beradi. Biz «Lunyuy»ning rus tiliga tarjimasi («Lunyuy». Izrecheniya. /I. I. Semen-nenko tarjimasi – M.: Eksmo, 2007) va unga ilova qi-lingan Sima Syanning Konfutsiy qavmi haqidagi maqo-lasini o'zbek tiliga o'girdik. Mazkur ishda o'zimizning shu asardagi Konfutsiyning shogirdlari (shogirdlari-ning shogirdlari ham shogirdlaridek) ularningning to-be'inlari bilan suhbatlar mazmunidan kelib chiqib xu-losa qilyapmiz.

Avvalo, Konfutsiyning tarjimai holiga qisqacha to'xtalsak. Uning asl ismi Kun Fu-szi yoki Kun-szi, uni Kun Syu deb ham Kun Chjunni deb ham atashgan. U m.a. 551-yilning 28-sentabrida Lu hoqonligidagi Szou qishlog'i, hozirgi Shandun viloyatining Syuyfu shahri-da tug'ilgan. Xitoy tarixshunosligining asoschisi, eram-izdan avvalgi II – I asrlarda yashagan olim Sima Syan ma'lumotiga qaraganda, og'ir xastalanib qolgan Lu knyazligi mansabdori U merosxo'ri Men Itszini oldiga chaqirib, vasiyat qiladi:

«Konfutsiy oliy nasabli, donishmandlar avlodidan. Kun-szi ajdodlari orasida e'tibor qozonmagan bo'lsa-lar ham, baribir, aqlli-zakovatli edi. Kun-szining bolalik chog'laridan urf-odatlarini sevganligi, ularga muhabbat qo'yganligi – donishmandligiga ishora emasmi? Men hayotdan ko'z yumganimda, uni albatta o'zingga ustoz-likka ol, bolam».

U yoshlikdan bilimga chanqoq bo'lib o'sdi, qo'li-

ga qanday kitob tushsa (u paytlarda kitoblar yog'och, bambuk parchalariga, shoyiga yozilardi), ma'nosini chaqib, chuqur o'rganardi. Uni ko'proq tarix, an'analar, qadimgi din va adabiyot tarixi, odob-axloq, masalalari qiziqtirardi. Ajdodlar hurmatini joyiga qo'yishi haqidagi ta'limotni Konfutsiy insoniylikning asosi deb belgilaydi. Uningcha va haqiqatan ham, barcha, ayniqsa savodli, ma'lumotli, odamiy, oliyhimmat bo'lishga intilayotganlar obro'-e'tiborli farzandlardir. Bu to'g'rida Xitoyda qancha rivoyatlar to'qilgan.

Masalan:

Ochlikdan jon taslim qilayotgan onasini boqish maqsadida o'g'lini sotgan kambag'al bir kimsa o'z tomorqasidan oltinga to'la xumcha topib olibdi. Unda «Sendagi syao (odamiylik) uchun» degan yozuv bo'lgan ekan;

sakkiz yashar bola yoz kechalari yuziga qo'nib xiralik qilayotgan pashshalarni haydamaydi – mayli, chaqsa chaqaversin, haydasam, qochib ota-onamga qo'nadi va ularni bezovta qiladi, deydi;

olijjanob Xan imperatori Ven-di uch yil davomida kasal yotgan onasining boshida bo'ladi, o'zi unga ovqat pishirib beradi, onasi ichadigan dorilarni avval o'zi totib ko'rardi.

Insoniylikning mohiyati, Konfutsiy yaratgan muqaddas kitoblarda talqin qilinishicha, ota-onaga risoladagidek xizmat qilish, risoladagidek ularni oxirgi manziliga eltish, risoladagidek qurbonliklar qilishdan iborat. Bu qoidalarga ko'ra, odobli farzand umr bo'yi ota-onasining xizmatida bo'ladi, ularga g'amxo'rlik ko'rsatadi, ko'nglini topishga intiladi, parvarish qiladi, salomatligi va manfaati yo'lida hamma narsaga tayyor turadi, har qanday sharoitda ularning hurmatini joyiga qo'yadi. Hatto ular yaramas, jinoyatchi, o'g'ri yoki qotil bo'lganlarida

ham, odobli farzand muloyimlik bilan, yalinib-yolvorib bo'lsa ham, ularni yaxshi yo'lga qaytishga undaydi.

Farzandlarning ota-onaga izzat-ikrom ko'rsatishi Xitoy davlatining hamma yerida qonunday tan olingan, hayotiy qoidaga aylangan, insoniylik namunalari esa tahsin-u taqlidlarga loyiq deb topilgan. Masalan, «Lunyuy»ning birinchi bob 6-hikmatida shunday naql bor:

«Muallim aytadi:

– Bolalar uyda ota-onalarini hurmat qiladilar, ko'chada kattalarning gapiga kiradilar, ehtiyotkor va adolatli bo'ladilar; hammani sevadilar, muruvvatli kishilarga yaqin bo'ladilar. Imkoniyati bo'lsa, ilm o'rganishga intiladilar». Demak, ota-onaga hurmat – insoniylikning ibtido-si: ota-onani hurmat qilgan odam nafaqat uydagilarni, balki ko'chadagilarni ham, yaqinlarini ham (yaqinlarini deganda, muqaddas kitoblarda ta'kidlanganidek, barcha – Odam Ato va Momo Havoning farzandlarini e'zozlaydi deb, tushuniladi), butun insoniyatni hurmat qilgan sanaladi. Ota-onani hurmat qilish, mutafakkir nazarida, insoniylikning birinchi belgisi. Masalan, u aytadi:

– Farzandlik burchini biladigan va kattalarning gapiga kiradigan odam kamdam-kam hukmdorning ra'yiga qarshi boradi. Hukmdorning ra'yiga qaraydigan odamda isyonkorlik bo'lmaydi. Oliyjanob inson o'z nasli haqida o'ylaydi; ildiz mustahkam bo'lsa, yo'l ham ravon bo'ladi, insoniylikning ildizi shu emasmi?

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, oliyjanob inson beshta xususiyatga ega.

Birinchisi – jen – insoniylik. Urf-odat adolatdan kelib chiqsa, adolat insoniylikdan kelib chiqadi. Demak, insoniylik hamdardlik, xayrixohlik, rahm-shafqatli bo'lish, odamlarni sevish, ularga g'amxo'rlik hissidan iborat.

Ikkinchisi - i - adolat. Insoniylik nuqtayi nazari-dan olganda, diniy marosimlar, taomillarga amal qilish gunoh emas. Sovetlar davrining mustabid tuzimning bunday diniy urf-odatlariga tish-tirnog'i bilan qarshiligi u tuzimning insoniylikdan mahrum ekanligini tasdiqladi. Bugungi kunda Konfutsiy bayroq qilgan diniy taomillarga rioya qiluvchi har qanday inson adolatli sanaladi. Bu hissiyot odilona, xolisona va haqqoniy ish tutish, tomonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bildiradi.

Konfutsiy shogirdlariga «Oliyjanob inson adolatni anglaydi. Avomlargina faqat foyda ko'rishni o'ylaydi» deb uqtiradi.

Uchinchisi - li - taomil, ko'proq diniy urf-odat, odatga aylangan rasm-rusum, marosimlar, Konfutsiy ta'limotida, asosan, ota-onaga va davlat boshliqlariga nisbatan izzat-hurmat ko'rsatish. Ideal, insonlar orzu qiladigan eng yaxshi jamiyat qurishga yo'naltirilgan har qanday faoliyat ham ana shu li - taomil tushunchasini to'ldiradi. Konfutsiy nazaridagi bunday ideal jamiyatni Forobiy fozil jamiyat deb ta'riflaydi. Bu jamiyat ahli fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, iqtidorli va iste'dodli bo'ladilar.

Forobiy bunday ideal jamoani boshqaruvchi podshoh va uning hokim-u mulozimlariga ham ma'lum talablar qo'yadi. Ya'ni, ular o'z fuqarolari haqida doim g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi zarur. Forobiyning fozil jamiyat oldiga qo'ygan talablari ichida komil inson fazilatlar alohida o'rin egallaydi. Bu g'oya keyinchalik Abu Rayhon Beruniy, Baxmanyor, Nizomiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish va boshqalar ijodida rivojlantirildi.

«Muallim Yu, Konfutsiy shogirdlariga aytar edi:

– Marosimlarni bajarishda eng muhimi ittifoqlilik, murosasozlik. Qadimgi podshohlarning yoʻli goʻzal edi. Oʻzlarining ham muhim, ham arzimagan ishlarini-da taomilga koʻra bajarganlar. Ammo murosasozlik deb qoidaga sigʻmaydigan amallarni bajarish yaramaydi».

Toʻrtinchisi – chji – sogʻlom fikrlash, donishmandlik, bilimlilik, bamaʼnilik, aqllilik, mulohazalilik, andishalilik, oʻylab ish qilish, ehtiyotkorlik, har bir xatti-harakatining samaradorligi haqida qaygʻurish va bu saʼy-harakatlarning istiqbolini belgilay olishni anglatadi. Inson oliyjanoblighining bu toʻrtinchi xususiyati adolatlilikka quvvat baxsh etib, aqlsizlik, nojoʻya xatti-harakat, bilimsizlik, bemaʼnilik va nomaʼqulchiliklarning oldini oladi. Konfutsiy taʼlimotining bu qirrasini quyidagi mulohazalarda oʻz aksini topgan.

«Fan Chi bilim nima? deb soʻrab qoldi.

Muallim aytdi:

– Odamlar oldidagi burchga amal qilish, ruhlarni hurmat qilish, ammo ularga yaqinlashmaslik.

Fan Chi insoniylik nima? – deb soʻradi.

– Qiyinchilik bilan boʻlsa ham muvaffaqiyatga erishish – shu insongarchilik boʻladi, – degan javob boʻldi».

Beshinchisi – sin – samimiylik, yaxshi niyat bilan qilingan amal. Erkinlik, bemalollik, halollik, vijdonlilik, insofilik, vijdon kabi tushunchalar oliyjanoblilikning muhim belgilaridan sanaladi. Bu xususiyatlarga ega odamlar komillikka intilayotgan sanaladi. Samimiylik taomilga quvvat berib, tilyogʻlamalik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, riyokorlikning oldini oladi. Har kim ham inson boʻlavermaydi. Inson yaxshi xulqi-atvori bilan inson, jamiyatda tutgan mavqeyi, oʻrni, ijtimoiy-siyosiy faolligi va jamiyatga tegayotgan nafi, umuman, sof insoniy fazilatlarini bilan inson. Ota-onasini sevma-gan odam oʻqishda ustozlarini hurmat qilmaydi, ishda

rahbarni sevmaydi, jamoasini nazar-pisand qilmaydi, yurtiga bemehr bo'ladi, yurt boshlig'ini sevmaydi, u – bee'tibor, beparvo, loqayd. Shundan kelib chiqib, ko'p tadqiqotchilar Konfutsiy ta'limotini odob-axloq va insonparvarlik ta'limoti deb baholaydilar.

Qadimgi Xitoy davlatchiligining paternalizm g'oyasiga ko'ra, oila shunchaki er-xotin va farzandlardan iborat guruh, xonadongina emas, balki mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri, jamiyat negizi sifatida, oila bu – Vatan, oila bu – davlat, ota esa hukmdor, davlat boshlig'i deb qaralgan. Shunga nisbatan ota-onaga munosabat davlatga munosabatni anglatgan. Konfutsiyning falsafiy qarashlarini o'rgangan olimlar bu modelni jamiyat va davlatning protokonfutsian, ya'ni davlatchilikning konfutsiycha ilk modeli deb baholaydilar.

Yigirma ikki yoshida Konfutsiy xitoy millatining Buyuk Muallimi deb tan olindi, o'ttiz yoshida Xitoy tarixida birinchi bo'lib o'zining xususiy maktabini ochdi. Maktabga ijtimoiy kelib chiqishi, dinidan qat'iy nazar, hamma qabul qilingan va unda etika – odobnoma, til, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilgan.

«Men hammaga, ya'ni menga quritilgan go'sht olib keladigan odamdan boshlab, hammaga saboq bera-man», derdi u.

Qadimgi ajdodlarning urf-odatlari, marosimlari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o'tganlarning shuhrati ularning avlodlarini yuksaltiradi, deb jamiyatning haqiqiy negizi, poydevorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odatlar, marosimlar, an'analarni tiklash va ularga amal qilish zarurligini uqtirdi. O'sha zamonlarda qonuniylashtirilgan «Litszi» ilmiy asarida yozilishicha, li, ya'ni diniy marosim, taomil bo'lmasa, davlat ham ravnaq topmaydi, mamlakatda tartib bo'lmaydi,



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/3569> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3569> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/3569>